



**SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQARISHI**  
*2023- YIL YANVAR-OKTABR OYLARI*




## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar-oktabr oylarida)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11647,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,8 % ni tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Ishlab chiqaradigan sanoat

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 10,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 63,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




### Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-oktabr

FHI,% da



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6726,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,8 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-oktabr


57,9 %

2023- yil yanvar-oktabr

57,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,6 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 4,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,9 % (3,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,2 % (16,8 %) va quyi texnologiyalisi – 70,3 % (74,8 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2023- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,6 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 10,1 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,5 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,5 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 66,2 %) ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*


Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa



Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Sellyuloza




\* Yanvar-oktabr oylari yirik korxonalar bo‘yicha


**Aroq**




**Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar**



**Boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar**




**Paxta tolasi**



**Paxta chigiti**



**Kalava ip**



2023- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,5 ming tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 0,6 % oshgan), 1,2 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (19,0 % oshgan) hamda 19,1 ming tonna Kalava ip (2,4 % ga oshgan) ishlab chiqarish va o'sish sur'atlari kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
<b>Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna</b>	16603,0	2852,0	-13751
<b>Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna</b>	1041,5	1239,5	198
<b>Boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar, ming t.</b>	15,4	15,5	0,1
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</b>	53,8	26,3	-27,5
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>	21,0	27,3	6,3


Yanvar-oktabr oylari yirik korxonalar bo'yicha

### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,9 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 134,3 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 15,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,5 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 678,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 121,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,5 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1959,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 51,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 20,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 8,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2051,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 %, fizik hajm indeksi 72,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 252,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 47,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 137,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 108,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 310,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 52,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 72,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 86,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4803,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,2 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,2 % ga oshganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	13520,4	13561,8	41,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	176,2	123,0	-53,2

yanvar-oktabr oylari yirik korxonalar bo'yicha

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	30,1	33,5	3,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	13,0	12,3	-0,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 51,8 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 3,0 % ga kamayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2375,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil  
yanvar-oktabr

76,3%

2023- yil  
yanvar-oktabr

77,1%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil  
yanvar-oktabr

23,7%

2023- yil  
yanvar-oktabr

22,9%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % (2022- yil yanvar-oktabr oylarida 52,5 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib 21,1 %, Guliston shahri 20,3, Sirdaryo tumani 20,0 %, Sayxunobod tumani 10,6 % hamda Shirin shahri 7,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Guliston tumani (219,1 %), Yangiyer shahri (196,3 %), Sardoba tumani (173,8 %) hamda Oqoltin tumani (147,4 %) qayd etildi.